

## YILQICHILIKDA OT TRENINGNING AHAMIYATI

**Saparov Alisher Raxmonberdiyevich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyasi  
Universtiteti asistenti*

**Sharopov Abdulla Ulho'jayevich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyasi  
Universtiteti asistenti*

**Annotatsiya.** Aholi o'rtasida yilqichilikga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish yilqichilik haqida kerakli va foydali maslahatlarni berib aholini yilqichilikga bo'lgan qiziqishini oshirish. Yilqichilikni qishloq xo'jaligida va sport sohasida rivojlantirish yo'llarini aholiga yetkazib berish. Aholi o'rtasida yilqichilikni ommalashtirish.

**Annotation:** To radically change the attitude of the population to horse breeding, to give necessary and useful advice on horse breeding, to increase the population's interest in horse breeding. To provide the population with ways to develop horse breeding in agriculture and sports. Development of horse breeding among the population.

**Kalit so'zlar:** Falabella, po'ni, qora bayir, qimiz, qazi-qarta.

**Key words:** Falabella, poni, black bayir, qimiz, qazi-karta.

**Kirish.** Yilqichilik chorvachilikning muhim tarmog'i hisoblanadi. Otlar xalq xo'jaligida turli maqsadlar (ishlatish, sport, mahsulot olish va boshk.) uchun ko'paytiriladi. Qishloq xo'jaligida asosiy ishlar mexanizasiya yordamida bajarilgan holda, ba'zi ishlarda ot kuchidan xam foydalaniladi. Demak, xalq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan holda xam yilqichilik uz ahamiyatini mutlaqo yo'qotmaydi.

Trening ot sog'ligini yaxshilaydi, ish qobiliyatini, sharoitga moslashuvchanlik xususiyatini va har xil kasalliklarga chidamliligini oshiradi, chunki tizimli ravishda trening qildirib va sinab turilmasa har qanday ot zoti xam takomillashmaydi, uning avlodlari yaxshi xususiyatlarni o'zida saqlab qola olmaydi.

Trening deb otlarni mashq qildirish, saqlash, parvarishlash va oziqlantirishning muxsus tizimiga aytiladi. Bunda ular har xil uzoqlikdagi masofani turli allyur va turli tezlikda bosib o'tishga qodir bo'ladi. Otlarning tipiga va zotiga qarab trening turlari va ularning bajarilish usullari har xil bo'ladi.

Otlarning trening darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ot shunchalik yaxshi chiniqadi, ish qobiliyati yuqori bo'ladi, harakati silliqlashadi, belgilangan ish miqdorini bajarish uchun avvalgiga qaraganda kam kuch sarflaydi. Bundan tashqari tizimli trening davomida otlarning yurak, o'pka, muskullari va markaziy asab tizimiyaxshi rivojlanadi, ozuqaga bo'lgan talabi oshadi, organizmda moddalar almashinuvining jarayoni kuchayadi, eng muhimi asta sekin ularning potensial imkoniyatlari ochila boradi.

Ma'lumki, madaniy ot zotlarining kelib chiqishida xillash va tanlanishning asosiy elementi trening va sinashning roli nixoyatda katta. Trening faqat nasldor otlarni yetishtirishdagina emas, balki yilqichilik mahsuldorligini oshirishda xam, sport otlarini yetishtirishda xam hozirgi zamon zoomuxandislikning muhim tadbiri vositalaridan biriga aylangan. Trening qildirish va sinash tizimi otlarning zoti hamda tipiga qarab o'zgarib turiladi.

Otlarni sinashning qo'yidagi usullari mavjud: to'rt oyoqlab tez chopish, to'rt oyoqlab chopib har xil balandlikdagi to'siqlardan sakrash, ustiga yuk ortilgan yoki aravaga qo'shilgan holda yo'rtib chopish, maksimal darajada yuk tortish, yukni ma'lum masofaga odimlab va yo'rtib olib borish, har xil xo'jalik ishlarida ishlatish.

Sinashning har bir turi otlarning tipiga va bajariladigan ishiga qarab ma'lum qoida asosida o'tkazilishi kerak. Odamlar azaldan uy hayvonlar orasidan ikki turini ajratib, ularni "Sodiq do'st" deb atab kelmokda. Bu hayvon turlariga ot va it kiradi. Otlarning yuzlab avlodlari ko'pdan ko'p murakkab trening maktabini o'tib kelganlar. Har bir keyingi avlodda odam ularda o'ziga kerakli shartli reflekslarni ishlab chiqqan. Asta sekin otlarning turli zotlari paydo bo'lib, ularda qimmatli kerakli shartli reflekslar boshqa turdagi hayvonlarga nisbatan osonrok, yengilrok va tezrok rivojlangan.

Vaqt o'tishi bilan, ayrim zotlar takomillashgan sari treningda bog'lanish, tormozlanish va harakatlanish kabi shartli stereotiplar kompleksi qanday bo'lish kerakligi aniqlangan. Amaliy usullar bilimi yigilgan. Masalan otlarda treningda kerak bo'ladigan shartli reflekslarni ishlab chiqish uchun qanday ta'sir o'tkazish kerak? Azaldan yaxshi natijaga erishish uchun og'riq faktorini qo'llash to'g'ri deb kelingan. XVI – XVII asrlarda xam otlar trening qilingan va ingliz ippologlari trening qilinadigan otga qattiqqul bo'lish kerakligini o'qtirganlar. Ularga qarshi chiqqan boshqa mutaxassislar jazolash bilan birgalikda rag'batlantirish xam kerak deb hisoblaganlar. Hozirgi davrda esa shartli reflekslar ishlab chiqish uchun kompleks usullarni qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Yilqichilikni har tamonlama rivojlantirish tadbirlari otlarning xo'jalik va biologik xususiyatlarini chuqur o'rganishga asoslanadi.

Otlarning tez yetiluvchanligi ular organizmining rivojlanish jarayonini yaxshilovchi sharoitlar bilan bog'liqdir. Bunday sharoitlarga otlarni trening (mashq qildirish, o'rgatish) qildirish kiradi.

## 2. Otlarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi

Zoologik klassifikasiya bo'yicha ot, eshak, kulan, onagra va zebralar sut emizuvchilar sinfiga, toqtuyoqlilar turkumiga, otsimonlar oilasiga, otlar avlodiga kiradi (ekvidlar). Hozirgi otlar mayda hayvonlarning evolyusiyasi natijasida bundan 50 mln. yil muqaddam kelib chiqqan va hozirgi davrga kadar o'n ikkiga yaqin davrni bosib o'tganlar.

Juda qadimgi otlarning tahmin qilinadigan avlodlari hozirgi davr otlariga o'xshamaganlar. Shunday avlodlarning biriga fenakodus kiradi va u ko'pincha itga yoki tulkiga o'xshagan. Fenakodusdan Shimoliy Amerika eogippusi kelib chiqqanligi taxmin qilinadi, u kattaroq bo'lib ko'p jixatlardan otga o'xshaydi Eogippusdan keyinga evolyusiya bosqichida mezogippus degan hayvon vujudga kelgan. Otlarning keyingi avlodlari miogippus, anxiterium, gipporion, progippus, plezigippus va boshk. hisoblanadi,

Otlar tez harakat qilishi va qattiq yerlarda yurishi ularda tuyoq hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Tuyoq avval orqa, keyin esa oldingi oyoqlarda rivojlangan. Oyoqlar uzayishi otlarning bo'yi baland bo'lishiga, bo'yin qismi uzayishiga olib kelgan. Bosh miyaning vazni oshgan.

Otlarning avlodlari Shimoliy Amerikadan Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alariga tarqalgan. Otlar it, qo'y va echkidan so'ng xonaqilashtirila boshlangan. Dastlab otlar eng ko'p qo'lga o'rgatilgan joylar – O'rta Osiyonig Amudaryo va Sirdaryo vodiylari, ikkinchi joy – Janubiy – Sharqiy Yevropa va Osiyo davlatlari hisoblanadi.

## 3. Ot konstitutsiyasi va eksteryeri

Organizmning nasl qoldiruvchanlik va individual rivojlanishiga sabab bo'ladigan anatomik va fiziologik xususiyatlarning yig'indisi konstitutsiya deb ataladi. Bu xususiyatlar hayvonning tana tuzilishida, ayrim organ va to'qimarning rivojlanish nisbatida; xayvon xalq xo'jaligida nechoglik qo'llanilishida, sog'lomligi va tashqi muhit ta'siriga qay darajada moslashishida o'z ifodasini topgan. Fanga konstitutsiya tushunchasini birinchi marotaba eramizdan avval 377– 460 yillarda yashab o'tgan buyuk olim, serqirra talant egasi Gippokrat kiritgan. 1930 yillarda professorlar V.O. Vitt va Sh.N.Zamyatin qishloq xo'jalik hayvonlarini keng tanali (eyrosomli) va tor tanali (leptosomli) konstitutsiya tiplariga bo'lishni tavsiya etadilar.

M.F.Kuleshov, Ch.Darvin aniqlagan korrelyativ o'zgaruvchanlik qonuniga asoslanib, qishloq xo'jalik hayvonlarni oddiy amalda qo'llanish mumkin bo'lgan ko'pol, nozik, bo'sh va zich kabi to'rt xil klassifikatsiyaga bo'ladilar.

Qo'pol konstitutsiya – hayvon suyaklari yo'g'on, terisi qalin va dag'al junlar bilan qoplangan, uning teri ostidagi yog' qatlami sust rivojlangan, boshi va oyoqlari tanasiga nisbatan nomunosib rivojlangan. Temperamenti flegmatik. Ish qobiliyati yuqori darajada emas.

Noziq konstitutsiya – hayvon suyaklari ingichka, boshi kichik, bo'yni ingichka, terisi nozik va yupqa. Junlari mayda va siyrak, tuyoqlari noziq.

Zich konstitusiyasi hayvon oyoqlari chayir va mustahkam, teriosti biriktiruvchi to'qimasi sust rivojlangan. Muskullari zich, temperamenti yuqori.

Bo'sh konstitusiyasi – hayvon gavdasi katta, suyaklari nisbatan mo'rt, muskullari bo'rtgan lekin bo'sh, pay va bo'g'imlar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Teri osti biriktiruvchi to'qimasi yaxshi rivojlangan. Bo'g'implarda suyuqlik to'planishi mumkin.

Ko'pol va zich konstitusiyali tiplar otlarning dasht va tog' zotlarida hamda shimolda joylashgan mahalliy o'rmon zotlarida ko'zga tashlanadi. Ular yaylov sharoitiga g'oyat chidamlidir.

Bo'sh, ko'pol va nozik konstitusiyali tiplar asosan og'ir yuk toshuvchi ot zotlarida ko'prok uchraydi.

Salt miniluvchi (sof qonli, arab, axaltaka) otlar uchun asosan zich konstitusiyasi xosdir.

Eksteryer ahamiyati. Eksteryer – hayvon konstitusiyasining tashqi tomondan ifodalanishi va organizmning tashqi tuzilishi degan ma'noni anglatadi. Organizmning tashqi tuzilishi esa hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan hayvonning ish qobiliyati va nasldorlik qiymatini ifodalaydi.

Otlarning eksteryeri to'g'risidagi dastlabki adabiyot birinchi marta 1717 yilda G.F.Dolgorukov tomonidan yozilgan. Shuningdek, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida xam bu yo'nalishda qator o'rinshlar bo'lgan.

Eksteryer bo'yicha to'g'ri tushuncha P.N.Kulishyov va N.P.Chervinskiylar tomonidan yaratildi. Bu olimlar qishloq xo'jalik hayvonlar eksteryerini o'rganishning turli usullarini ishlab chiqdilar. Lekin hayvonlar eksteryeriga qarab ularning biologik xususiyatlariga aniq baho berishning ob'ktiv usuli yo'q desa bo'ladi. Masalan – otlarning tashqi tuzilishiga qarab ularning kuchlilikini, yurish va chopish tezligini, ish qobiliyatini aniqlab bo'lmaydi va u bo'yicha nasl qoldirish xususiyatlariga to'liq baho berish qiyin.

4. Ot tana tuzilishining tiplari va turlari.

Afrika va Osiyodan Yevropaga olib kelingan tez allyurli otlarning biologik xususiyatlari G'arbiy Yevropada o'sgan sekin allyurli og'ir yuk tortuvchi otlardan farqi xammaga ma'lum. .

Yarimcho'l zonalarida tanasi ensiz, uzun oyoqli, boshi yengil va cho'zinchoq, terisi yupqa, juni kam, quruq va noziq tanali otlar hosil bo'lgan.

Keskin kontinental cho'l iqlimida ya'ni issiq yoz va sovuq kamqorliq qish bo'ladigan joylarda otlarning boshqa cho'l tipi paydo bo'lgan. Bu otlar keng tanali, oyoqlari kalta, boshi katta, terisi qalin va yaxshi jun bilan qoplangan bo'lib ular tez semiradi. Bunday otlarning konstitusiyasi ko'pol va zich bo'ladi.

Tog'li joylarda rivojlangan ot tipida tanasi uzun, bo'yi uncha kata emas, beli yengil, oyoqlari quruq, mustahkam, sag'risi tushgan bo'ladi. Bunday otlarning konstitusiyasi mustahkam va zich.

Sovuq va nam iqlim sharoitida shimoliy otlar rivojlangan. Bu otlar massiv (katta), kengtanali, boshi kalta va keng, juni ko'p, tuyoqlari enli bo'ladi.

Ot turlari. Otlarni qoplab turgan junlari va terisining rangiga tus deb aytiladi. Belgilarni va tuslarni farq qilmoq kerak. Belgilar parcha yoki dog' xolida otlarning boshi yoki oyoqlarida bo'lib, asosiy tusdan o'zining rangi bilan farq qiladi.

Otlarni ro'yxatdan o'tkazishda ot tusini va belgilarini to'g'ri yozish katta ahamiyat kasb etadi.

Tuslar ot yoshi kattalashgan sari o'zgarib boradi. Tuslar ikki guruhga: oddiy va murakkab tuslarga bo'linadi.

Oddiy tuslar – bir xil tutash tuslar (tim qora, qora, bo'z va xokazo).

Murakkab tuslar – bir nechta tuslar yig'indisi (boril, bodom, ko'k, gavhar, ola to'riq, ola va xokazo). Otlarning jayron, tim qora, qora to'riq, saman va ko'k tuslari asosiy hisoblanadi. Ochiq tusga ega bo'lmagan otlarda tana muskullari nisbatan mustahkam bo'ladi, ular tashqi muhit ta'surotlariga chidamli bo'lib, ishchanlik belgilari kuzatiladi. Ola belgilari mavjud otlar tuyog'i mustahkam bo'lmaydi.

5. Ot tanasining o'lchamlari va otlarni eksteryer bo'yicha baholash

Yosh otlarning o'sishini va rivojlanishini kuzatib borishda hamda bonitirovka vaqtida hayvonda 4 ta o'lcham: balandligi, tanasining uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi va kaft aylanasi olinadi.

Ot tanasining tuzilishini to'liq xarakterlash uchun bir o'lchov ikkinchi o'lchovga nisbatan chiqariladi va bunga indeks deyiladi. Ko'pincha quyidagi indekslar ishlatiladi:

1. Uzunlik 2. Ko'krak qafasi aylanasi. 3. To'lishganlik. 4. Suyakdorlik. 5. Salmoqdorlik. 6. Uzunoyoqlik. 7. Kaft kuchlilik. 8. Ko'krak chuqurligi. 9. Balandlik 10. Kataboshlik va boshk.

Otning ishchanligi uning semizligiga xam bog'liq bo'ladi. Otlarning bir nechta semizlik darajalari mavjud. Ular bo'yicha ot kondisiyasini yoki ot bajarish kerak bo'lgan ishga uning holatining mosligini aniqlaydilar.

Ko'rgazmali, a'lo semizlik. Bunday otning tanasi to'lishgan bo'lib ko'rinadi, junlari yaltirab turadi. Ammo bunday otning ishchanligi past bo'lib muskulaturasi yaxshi ko'rinmaydi.

Zavod yoki yaxshi semizlik. Bunday semizlikdagi otlarda jinsiy aktivlik eng yuqori bo'ladi.

Ishchi semizlik, Bunday semizlikda muskullar orasida ziyod yog to'qimasi to'planmaydi va u ishchi ot uchun eng ma'qo'l hisoblanadi.

Koniqarsiz semizlik. Otlarni saqlash sharoiti qoniqarsiz va oziqlanishi yomon yoki u kasal, qari bo'lganda kuzatiladi.

Ot eksteryerini aniqlashni u dennikda turganda yoki ozuqa qabul qilganda boshlash lozim. Bunda uning odamlarga munosabatini. ozuqani qabul qilish sifatini, adadlarini ko'rish mumkin. Undan keyin ot otxonadan chiqarilib uning ko'zi, burun kataklari, og'iz burchaklari, tishlarini, tilini, ganashlarini va ensasini ko'zdan kechiradilar. Otning umumiy ko'rinishini 6 – 7 qadam keladigan masofadan kuzatish lozim.

Amalyotga tavsiyalar: O'zbekistonda yilqichilikni rivojlantirish uchun eng avvalo aholiga yilqichilik haqida to'g'ri tushunchalar berish. Shuningdek maktab, kollej, litsey, o'quvchilarini shahar va tumanlardagi yilqichilik fermalariga ekskursiyalarga olib borib, aholini yosh qatlamini yilqichilikga qiziqtirish. Ot sportini rivojlantirishga kelsak aholi o'rtasida ot sporti o'yinlarini ko'paytirish masalan: ko'pkari o'yinini va ot sporti o'yinlarida muvaffaqiyatga erishgan sportchilarni munosib taqdirlash. Agar shu ishlar amalyotda qo'llanilsa yilqichilik va ot sporti rivojiga yanada rivoj qo'shgan bo'lardi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Donskaya T.K., Narusbayeva M.A. Bolezni nervnoy sistema «Bolezni sobak», M.; 2003
2. Dorosh M. V. Bolezni loshadey. Veche, 2007 g. <http://www.e-reading.club/book.php?book=83010>
3. Ibragimov Sh.I. va boshq. Sitologiya, gistologiya va embriologiya. Toshkent. 2006
4. Kalashnik I.A., Logvinov D.D., Smirnov S.I. va boshq. Nezaraznyye bolezni loshadey. M.; Agropromizdat, 1990
5. Lipovsev I. Lecheniye paralichey u sobak. «Oxota i oxotnichye xozyaystvo» – № 6 – 1990
6. Maryushina T. O. Diagnostika i kliniko-morfologicheskaya xarakteristika vtorichnogo giperparatireozu u sobak. Avtoreferat diss. na soisk. uch. step. kandidata veterinarnykh nauk. Moskva. 2012
7. Sidorova Yu.I. Parez u jivotnykh. Veterinarnyy sentr Dobro Vet. Moskva. 2013
8. Sotnikov N.A. Problemy profilaktiki i lecheniya paralichey i parezov u sobak. Sankt-Peterburg, 2014.
9. Tashtemirov R. M., Narziyev B.D., 3. Uzakova D.P. Ot treningi asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2009
10. Timofeyev/ S. V., Filippov Yu. I., Konsevaya S. Yu. i dr.; Obshchaya xirurgiya jivotnykh. Pod red. S. V. Timofeyeva. – M.: Zoomedlit, 2007. – 687 s.
11. Shakurov M.Sh. Kompleksnoye lecheniye paralichey u sobak. Kazanskaya akademiya veterinarnoy medesiny. 1990.

#### Internet ma'lumotlari

1. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). MEASURES FOR THE PREVENTION OF DISEASES CAUSED BY DISORDERS OF BEE NUTRITION AND FEEDING CONDITIONS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(03), 5-2. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. MEASURES FOR THE PREVENTION OF DISEASES CAUSED BY DISORDERS OF BEE NUTRITION AND FEEDING CONDITIONS.
2. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.

3. Subxonovich, N. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Распространение гельминтозных болезней однохвостых животных. ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал, 11(10), 880-883.
4. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. Улуков Бехзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идиришхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон кизи.
5. MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPSIS DISEASE IN CALVES., MU Mahamadaliyeva, OA Agamurodov - Ученый XXI века, 2021
6. Ходжаханов Шохрузхон Идиришходжа оғлу, Зайниддинов Рамзод Зайниддинович, Реджапов Джавоксирбек Хосылжон оғлу REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT., З. Р. Зайниддинович - Эмерджент: Журнал образовательных открытий и..., 2022 3 No. 1 (2022): ejedl.academiascienc
7. СИГИРЛАРДА МАСТИТЛАРНИНГ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ | международная конференция по изучению и преподаванию главной навигации основному содержанию боковая панель Зарегистрироваться Войти международная конференция по изучению и преподаванию домашнего архива О О журнале материалы о конфиденциальности выдаче 1.Дом-2.Архивов 3.Объем. Т. 1. № 1 (2021): “международная конференция по образовательным инновациям и прикладных наук 2021-1” 4.Статьи СИГИРЛАРДА МАСТИТЛАРНИНГ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ боковой панели статья в формате PDF Опубликовано: 20 янв, 2021 ключевые слова: акушер-гинекологик, мацион, насиллик, рацион,мастит основное содержание статьи Ўғилбу Имомали кизи Қўзибоева Самарқанд ветеринария медицинаси институти Шохрузхон Идиришхўжа ўғли Хўжахонов Самарқанд ветеринария медицинаси институти